

**O'QISH DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN
FOYDALANIB BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING BILIM
SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

Axmadjanova Tamanno Hasanboy qizi

tamannoaxmadjanova@gmail.com

Annotasiya: Bu maqolada “Boshlang’ich sinf ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish” mavzusini ko’rib chiqamiz. Bu ta’rifdagi mavzu boshlang’ich sinf ona tilini o’rganishga yo’naltirilgan darslarda interfaol metodlardan foydalanishni ko’rsatadi.

Kalit so’zlar: Interfaol metodlar, aktiv qatnashish, ko’nikmalar, muammolarga yechim topish, tahlil qilish, kritik tasavvur, o’zlashtirish, hamkorlik, bilim oshirish, o’z fikrlarini ifoda qilish, o’rganish jarayonlari.

**МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ УЧЕБНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ
УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ
ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА УРОКАХ**

Аннотация: В данной статье мы рассмотрим тему «Использование интерактивных методов на уроках родного языка в начальной школе». Под темой в данном определении подразумевается использование интерактивных методов на уроках, направленных на изучение родного языка в начальной школе.

Ключевые слова: Интерактивные методы, активное участие, навыки, решение проблем, анализ, критическое мышление, мастерство, сотрудничество, усвоение знаний, выражение собственных мыслей, учебный процесс.

**METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE LEARNING
COMPETENCES OF PRIMARY STUDENTS USING INTERACTIVE
METHODS IN LEARNING LESSONS**

Annotation: In this article, we will consider the topic “The use of

interactive methods in primary school native language lessons". The topic in this definition indicates the use of interactive methods in lessons aimed at learning the primary school native language.

Keywords: *Interactive methods, active participation, skills, problem solving, analysis, critical thinking, mastery, cooperation, knowledge acquisition, expression of one's own thoughts, learning processes.*

KIRISH

O'qish savodxonligi o'quvchilarda matnga asoslangan holda undan ma'lumot olish va shu asosda muayyan hayotiy xulosalarni shakllantirish masalasini ko'ndalang qo'yadi. Shuningdek, o'qiganlari bo'yicha o'z mulohazalariga asoslangan ko'nikmalar: matndagi ma'lumotlarni o'z bilimlari kontekstida birlashtirish, sharhlash va baholash; muallif tomonidan aytilmagan tagma'noni anglash; ularni matnning umumiy g'oyasi bilan bog'liq holda izohlash; nafaqat matndagi ma'lumotlarga, balki uning rasmiy elementlariga (janr, shakl, mazmun, til) tayangan holda muallif niyatini qayta yaratish kabi faoliyat turlari ham e'tibor markazida bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili, matematika, o'qish, odobnoma, tabiatshunoslik darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang'ich sinflardan oq «dars» degan muqaddas so'zdan bezib qolmasliklari lozim. Bugungi kunda o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali o'qituvchilar turli didaktik o'yinlardan foydalanishmoqda.

Kelajakning o'zida nima xaritalanganligi esa, o'quvchilarni ilmiy tarbiyalash va o'quvchi o'rtasida aloqani kuchaytirishga yordam berishdir. Maqola o'quvchilar uchun qiziqtiruvchi, foydali va qonuniy bo'lgan ma'lumotlar taqdim etish orqali ularga o'z fikrlarini ifoda qilish, ko'nikmalarni o'rganish va yaratuvchi o'ylash qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Bu, o'quvchilarning o'z bilim va ko'nikmalari bilan o'z fikrlarini qurish va jamiyatda muammolar yuzasidan

aholining qiyinchiliklarini hal qilishda o'z ahamiyatini ko'rsatadi.

Interfaol metodlar, o'quvchilar faoliyati va ishtirokiyatini oshirishga yo'naltirilgan o'qitish usullari bo'ladi. Bu metodlar, o'quvchilarni passiv holatdan uzaklashtirib, ularga o'z o'rganish jarayonlarini o'zgartirishga imkon beradi.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda o'qish savodxonligi zamonaviy jamiyatda hayotga tayyorlikning eng muhim parametrlaridan biri ekanligi tobora ayon bo'lib bormoqda. O'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishsiz boshlang'ich va o'rta maktablarda muvaffaqiyatli ta'lim olish mumkin emas. Adabiy ta'limda o'qishni o'rgatish masalalariga doimo katta ahamiyat berib kelinayotganiga qaramay, mazkur muammo zamonaviy maktablar uchun yangi yo'nalish sanaladi. So'nggi paytlarda har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldiga ta'lim sifatini oshirish bo'yicha qo'yilayotgan yangicha talablar qatorida o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish masalasi qo'yilayotgani ham bejiz emas, albatta. Uzlaksiz ta'limning boshlang'ich sinflar "Milliy o'quv dasturi"da ham ushbu muammo doirasida aniq maqsad va vazifalar belgilangan.

Boshlang'ich sinflarning o'qish savodxonligi o'quv fani dasturlarida darsliklar mazmuni, tuzilishi va o'qitish metodikasi nazarda tutilgan bo'lib, ular badiiy-estetik va adabiy tanqid tamoyiliga asoslanadi. Badiiy-estetik tamoyil o'qish uchun asar tanlash strategiyasini belgilaydi. Bu atrofdagi olam va insoniy munosabatlarning o'zaro aloqadorligini ochib beradi, kichik yoshdagi o'quvchilar qalbida go'zallik tuyg'usini tarkib toptiradi, hayotdagi murakkabliklarni tushunishga o'rgatadi hamda voqelikka nisbatan dastlabki shaxsiy qarashlarini shakllantiradi. Mazkur tamoyil san'atning boshqa turlari bilan faol aloqa o'rnatishni nazarda tutadi. Adabiy tanqid tamoyili boshlang'ich ta'lim bosqichining o'ziga xos xususiyatlariga taalluqli bo'lgani uchun badiiy matnni tahlil qilishda san'atning, xususan, adabiyotning umumiy tili sifatida badiiy obrazni birinchi o'ringa olib chiqishda amalga oshiriladi. Badiiy adabiyot qahramonlarning fikrlari, his-tuyg'ulari va g'oyalarini ifoda etadigan og'zaki va badiiy tasvirni yaratish vositasi sifatida tushuniladi. So'z alohida-alohida emas, balki asarning

obrazli tizimida, real kontekstida ko'rib chiqiladi. Asar matni ustida ishlash faqat badiiy detallarni aniqlash, taqqoslash va boshqa tasviriy ifoda vositalari tahlili bilan cheklanib qolmasligi zarur. Ifodaviy vositalarni tahlil qilish o'quvchilarga badiiy tasvirning yaxlitligi va mazmunini his qilishga yordam beradigan darajada amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Tahlilda ushbu tamoyil asar shakli, mazmuni, mavzusi, muammo, axloqiy-estetik g'oyasi kabi jihatlarni o'rganishni maqsad qiladi. O'qish savodxonligi darslari yozuvchilar ijodining o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirishni o'z ichiga olmaydi, chunki kichik yoshdagi o'quvchilar hali yyyetarli darajada o'qish, zarur hayotiy kuzatish va umumlashmalar qilish ko'nikmasiga ega emas.

XULOSA

O'qish savodxonligi darslari maqsadi baland ovozli o'qish shaklidan tortib, aqliy harakat sifatida amalga oshiriladigan ovozsiz o'qishgacha bo'lgan nutq faoliyatining bir turi sifatida o'qish qobiliyatini jadal rivojlantirishdir. Professor Q.Yo'ldoshev adabiy ta'lim vazifalarini shartli holda uch bosqichga ajratadi. Bular: kuzatish yoki qabul qilish, mushohada va faoliyat bosqichlaridir.[3] Fikrimizcha, mazkur tasnifda adabiy o'qish bilan bog'liq jarayonlar qamrab olingan. O'qish savodxonligi takomilida o'qilgan asarlar ma'nosini tushunish, umumlashtirish va asosiy fikrlarni ajratib ko'rsatish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha tegishli ishlar olib boriladi. O'quvchilar ifodali o'qish texnikasini o'zlashtiradilar va jarayonda yuzaga keladigan muloqotga kirishishga doir turli muammolarini hal qiladilar. Tahlil orqali ifodali og'zaki muloqot usullarini matnlarni o'qishga o'tkazishni o'rganadilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xolmuratov, X. S., Xusainova, Z. M., Duschanov, N. S., Abdullayev, R. A., & Yangibayeva, O. S. qizi. (2022). Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar. Science and Education, 3(1), 491–495. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/2350>
2. Xolmuratov, X. S., Qurbanova, X. D., Madaminova, F. M., Madaminov, B. R., Jumanioyozova, S. B., & Saidova, L. B. (2021). Ta'limida zamonaviy pedagogik

texnologiyalarni qo'llash. Science and Education, 2(12), 551–556. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/2207>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli farmoni

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 3. Musurmanova A., va boshqalar. Umumiy pedagogika - Toshkent Innovatsiya - Ziyo.2020.- 194-bet.

5. Azimova I, Mavlonova K., Quronov S. va b. Ona tili va o'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'limning 1-sinfi uchun darslik.

6. Tolipov O'.Q., va M. Usmonboyeva .Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari - Toshkent.Fan. 2006.-260bet